



HUSNI XULK MO‘MINNING ZIYNATIDIR

I. M. Sirojiddinova

Andijon mashinasozlik instituti, “Gumanitar fanlar” kafedrası mudiri, p.f.n, dotsent

G‘aniyev Murodiljon

Andijon mashinasozlik instituti, “Gumanitar fanlar” kafedrası assistenti

Annatotsiya: Ushbu maqolada islom dini odob-axloq dini ekanligi, . inson xulqi chiroyli bo‘lishi uchun, avvalo, uning qalbi pok bo‘lishi lozimligi, dinimizdagi odob-axloq bo‘yicha juda ham ko‘plab ko‘rsatmalar borligi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Husni-xulq, kechirimlilik, tasarruf, fazilat.

Alloh taolo, suyukli payg‘ambari Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallamga xitob kilib shunday deydi: **“Albatta, siz buyuk xulq uzradursiz”** (Qalam surasi 4-oyat). U zot go‘zal xulq sohibi bo‘lganlar. U zotning xulqlari haqida Oisha roziyallohu anhodan shunday rivoyat qilinadi: Sa‘d ibn Hishomdan rivoyat qilinadi: U kishi aytdi: “Men Oisha roziyallohu anhodan: “Menga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xulqlari haqida xabar bering”, deb so‘radim. Oisha roziyallohu anho: “U zotning xulqlari Qur‘on edi”, deb aytdilar””. (Imom Ahmad rivoyat qilgan). Ya‘ni, Muhammad alayhissalom Qur‘ondagi oliy xulqlar bilan xulqlanganlar. Qur‘ondagi barcha yaxshi xulqlarni o‘zida jo qilganlar. Yana bir hadisda shunday deyilgan: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: U kishi aytdilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Men yaxshi xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilganman”**, dedilar”. (Bayhaqiy rivoyat qilgan). Bilamizki, insonning ziynati, go‘zalligi uning tashqi ko‘rinishida yoki boyligi, nasl nasabida emas, balki uning chiroyli odobi, husni-xulqidadir. Abud Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **“Husni xulqdan ko‘ra tarozida og‘irroq narsa yo‘qdir”**, dedilar. (Abu Dovud rivoyat qilgan).

Odob nima, odob bu-bir insonning xulq-atvoridagi nafosat, nozik didlilik, qalbi pokizalik hamda tilidan keladigan xush so‘zlarining ham dilidan kelishi. Qaysi asrga, zamonga qaramang, dini va irqidan qat‘iy nazar yaxshi xulqli, oliyanob, shirin so‘z, go‘zal fazilatli insonlar jamiyatning ko‘rki, odamlarning a‘losi bo‘lib kelgan. Insonning odobi qanchalik komil bo‘lsa, uning xulqi shunchalar go‘zal, darajoti esa shu qadar yuqori bo‘ladi. Aslini olganda esa, chiroyli odob, husni-xulq insonga berilgan eng ulkan ne‘matlardan biri hisoblanadi. Ba‘zida insonlarning aksariyati ilmiy saviyasi, nasl-nasabi, kelib chiqishi, boyluk-davlati bilan faxrlanib, shular bilan g‘ururga beriladi, afsuski, inson ushular bilan komillikka yetisha olmaydi. Chin insonga ziynat bo‘ladigan, uni har joyda darajasini ko‘tarib, obro‘sini saqlaydigan yagona boyluk bu-o‘sha husni xulqdir. Xulqi go‘zal bo‘lmagan, odobi bo‘lmagan inson hayotda ko‘p adashadi, aynan ana shular yo‘qotishlarga ko‘proq uchraydilar. Inson, eng avvalo, ilm olib, odobli bo‘lib, odamlarga yaxshilik qilishga harakat kilmog‘i kerak. Bir inson uchun eng katta faxr bu-ilm va odobdir.[1,2]. Bu ikkisidan-da yuksak fazilat bo‘lishi mumkin emas. Alloh taolo yana: **“Kechirimli bo‘l, yaxshilikka buyur va johillardan yuz o‘gir”**, degan (A‘rof surasi 199-oyat). Ya‘ni, o‘zaro muomala-munosabatda kechirimli bo‘l, oson yo‘lni tut. Odamlarga nisbatan o‘ta talabchan bo‘lma. qilgan xatolarini avf etuvchi, keng bag‘irli bo‘l. Haqiqatda ham Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu sifatni muborak shaxslarida mujassam qilgan edilar. Ul zot haqidagi rivoyatlarda kishini hayron qoldirarli darajadagi holatlar zikr etilgan. Ul zotning



sahobai kiromlari, haqiqiy mo'min-musulmonlar ham doimo oyati karimada ta'kidlanganidek bo'lishga, ana shu qoida asosida yashashga astoydil harakat qilganlar. Bu Islom ulamolari uchun juda ham zarur bir sifatdir. Har bir narsani yomonlik bilan emas, faqat yaxshilik bilan qarshi olish darajasiga yetgan kishigina katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Shuningdek, olim odam kishilarni o'zlari bilmagan e'tiqod, ibodat va amallarni bajarishga o'rgatishi kerak. Shuning uchun ham olim odam atrofida turli-tuman malomat, ig'vo, bo'hon, yolg'on gaplar, so'kishlar, ozorlar eshitadi. Turli nohaq tasarruflar va zulmlar ko'radi. Olim shularning hammasiga sabr qilishi kerak. Ana shundagina yuqorida aytilgan darajaga erishadi [3,4].

Abu Zarr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam menga:

«Qayerda bo'lsang ham, Allohga taqvo qil. Yomonlikka yaxshilikni ergashtir. Bu uni o'chiradi. Odamlarga husni xulq ila muomala qil», dedilar».

Sharh: Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam o'zlarining bu hadisi shariflarida uchta ulkan ishni lozim tutishni nasihat qilmoqdalar;

1. “Qayerda bo'lsang ham, Allohga taqvo qil”. Banda qay makonda bo'lsa ham, qandoq holda bo'lsa ham doimo Allohga taqvo qilishni tark etmasligi lozim.
2. “Yomonlikka yaxshilikni ergashtir. Bu uni o'chiradi”. Banda bilmasdan biror yomonlikni qilib qo'ysa, darhol o'sha yomonlikning ketidan yaxshilik qilib mazkur yomonlikni o'chirib yuborishi zarur.
3. “Odamlarga husni xulq ila muomala qil”. Mo'min-musulmon banda barcha odamlar bilan husni xulq ila muomalada bo'lmog'i kerak.

Yana o'sha kishidan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Birodaring yuziga tabassum qilmog'ing sadaqadir.

Amri ma'ruf, nahyi munkar qilmog'ing sadaqadir. Adashgan yerida odamni yo'llab qo'ymog'ing sadaqadir. Ko'zi yaxshi ko'rmaydigan kishiga bir narsani ko'rsatib qo'ymog'ing sadaqadir. Yo'ldan toshni, tikonni va suyakni olib tashlashing sadaqadir. O'zingning paqiringdan birodaringning paqiriga quyib bermog'ing sadaqadir”, dedilar”.

Sharh: Sadaqa qilish qanchalar ulug' ish ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Kishilar Allohdan savob umidida mol-dunyo sarflab sadaqa qiladilar. Sadaqa tasdiq ma'nosini bildiradi. Ya'ni, sadaqa qilgan odamning haqiqiy iymon sohibi ekani tasdiqlanadi. Ushbu hadisi sharifdan molu dunyo sarflamay ham sadaqa qilganning savobini va u erishgan darajalarga erishish mumkinligi chiqmokda. Kishi o'zining husni xulqi ila xuddi sadaqa qilganning savobini olishi va o'sha darajaga yetishi mumkin ekan. Boshqacha aytsak, husni xulqning sho'balaridan har biri o'z sohibini sadaqa qilgan kishining savobiga va darajasiga erishtirar ekan.

1. “Birodaring yuziga tabassum qilmog'ing sadaqadir”.

Ochiq yuzlik bo'lish husni xulqning bir sho'basidir. Faqat bir bor birovning yuziga tabassum ila boqmoq ham sadaqa ekan. Islomda kishilar orasidagi o'zaro muomalalarga qanchalik e'tibor berilganini qarang! Sadaqa qilishdek ulug' ishning savobini olmoqchi bo'lgan odam boshqa birovga tabassum ila boqib qo'ysa yetarli. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go'zal jamiyat bo'lishini tasavvur qilib ko'ring-a!

2. “Amri ma'ruf, nahyi munkar qilmog'ing sadaqadir”.



O‘z birodarlarini yaxshilikka undab, yomonlikdan qaytarish naqadar ulug‘ ish! Ana shu ish go‘zal ish bo‘lib qolmay, yana sadaqa kabi savobga erishtirar ekan. Bir odamga biror yaxshi ishni qilishni targ‘ib qilish – o‘zi katta savobga noil qiladi ekan. Bir odamni biror yomon ishdan qaytarib qolish ham o‘shandek savobga noil qiladi ekan. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go‘zal jamiyat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ravering!

3. “Adashgan yerida odamni yo‘llab qo‘ymog‘ing sadaqadir”.

Bir odam boradigan yerini topa olmay adashib qoldi. Qayoqqa borishini bilmay sarson bo‘lib yuribdi. O‘zini bilmagan odamlar unga e‘tibor bermay o‘tib ketmoqdalar. Ba‘zilaridan adashgan odam yordam so‘rasa ham yelkalarini qisib qo‘yib o‘z yo‘llarida shoshib ketmoqdalar. Bir husni xulqli odam paydo bo‘ldi. Adashgan kishiga yo‘l ko‘rsatib qo‘ydi. O‘sha adashgan odamning qanchalar xursand bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go‘zal jamiyat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ring-a!

4. “Ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan kishiga bir narsani ko‘rsatib qo‘ymog‘ing sadaqadir”. Bir ko‘zi ojiz odam boradigan yerini topa olmay qiynalib qoldi. Qayoqqa borishini bilmay sarson bo‘lib turibdi. O‘zini bilmagan odamlar unga e‘tibor bermay o‘tib ketmoqdalar. Ba‘zilar ko‘zi ojiz odam ulardan yordam so‘rasa ham yelkalarini qisib qo‘yib, o‘z yo‘llarida shoshib ketmoqdalar. Bir husni xulqli odam paydo bo‘ldi va ko‘zi ojiz kishiga yo‘l ko‘rsatib qo‘ydi. O‘sha ko‘zi ojiz odamning qanchalar xursand bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go‘zal jamiyat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ring-a!

5. “Yo‘ldan toshni, tikonni va suyakni olib tashlashing sadaqadir”.

Kishilarning yo‘lida turli sabablarga ko‘ra toshmi, tikonmi, suyakmi yoki shularga o‘xshash narsalar, sochilib yotibdi. O‘sha narsalar yo‘lovchilarga xalaqit bermog‘da, ularning ko‘nglini g‘ash qilmog‘da. Ammo negadir ulardan birortasi o‘sha ozor beradigan narsalarni yo‘ldan olib tashlashni xayoliga ham keltirmayapti. Chunki ular bu ishning katta savobligini bilishmaydi. Ular bunga o‘xshash ishlarni qilib, sadaqa qilganning savobini olish ruhida tarbiya topmaganlar. Shu asnoda xusni xulqli bir odam paydo bo‘ldi-yu, yo‘lni tozalab qo‘ydi. O‘sha yo‘ldan o‘tuvchi har bir odamning qanchalar xursand bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go‘zal jamiyat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ring-a!

6. “O‘zingning paqiringdan birodaringning paqiriga quyib bermog‘ing sadaqadir”. Bir kishi o‘z paqirini yoki boshqa bir idishini ko‘tarib olib, o‘ziga kerak suvmi yoki boshqa bir narsanimi, izlab yuribdi. O‘sha onda u mazkur narsaga juda ham muhtoj. O‘sha orzu qilingan narsadan ozgina bo‘lsa, uning hojati ravon bo‘ladi. Ammo odamlar huddi uni ko‘rmagandek, zorlanishini sezmagandek, beparvo o‘tib ketmoqdalar. Ba‘zilar o‘sha arzimagan miqdordagi narsa uchun pul so‘ramoqdalar. Bizning qahramonimiz aksiga olgandek shoshilib pul olishni ham unuttan ekan. Bunaqa bo‘lishi xayoliga ham kelmabdi. Nima qilish kerak? Shu asnoda husni xulqli bir odam paydo bo‘ldi, o‘zining paqiridan birodarining paqiriga mazkur narsadan quyib berdi. O‘sha muhtoj odamning qanchalar xursand bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Bu hadisi sharifga amal qilib yashagan jamiyatning qandoq go‘zal jamiyat bo‘lishini tasavvur qilib ko‘ring-a! Husni xulqli bo‘lishning o‘zi nima uchun sadaqa qilish bilan tenglashtirilishini endi tushungan bo‘lsangiz kerak. [5,6].

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabi sollallohu alayhi vasallam: “Sizlarning yaxshingiz husni xulqligingizdir”, dedilar”.

Termiziy, Muslim va Buxoriy rivoyat qilishgan. Buxoriyning lafzida:

“Albatta, sizning eng yaxshingiz husni xulqligingizdir”, deyilgan.



Sharh: Mo`min-musulmon odam eng yaxshi odam ekanligi hammaga ma`lum. Ana o`sha eng yaxshilar ichida eng yaxshisi esa, shubhasiz, husni xulqlilaridir. Shuning uchun eng yaxshi musulmon bo`layin degan kishi taqvo bilan birga, husni xulqli bo`lishga harakat qilishi lozim.

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

“Har bir ma`ruf sadaqadir. Birodaringni ochiq yuz bilan qarshi olishing ham, o`z paqiringdan birodaringning idishiga bo`shatmog`ing ham ma`rufdandir”, dedilar”.

Sharh: Demak, faqat hadisi shariflar matnida zikr qilingan narsalargina emas, balki har bir yaxshi ish ham katga savoblarga noil qilishi turgan gap ekan. Abu Sa`id roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Qoqilmaguncha halim bo`lmas. Tajriba ko`rmaguncha hakim bo`lmas”, dedilar”. Termiziy, Ahmad va al-Hokim. rivoyat qilishgan.

Sharh: Bu hadisi sharifdan husni xulqning shakllanishida kishining o`z hayotida bo`lib o`tadigan hodisalardan ibrat olib, o`zini o`nglab borishi ham katta gap ekanligi ta`kidlanmokda. Qadimdan axloq ilmi ulamolari odamdagi xulqlar uning yaratilishida qo`shib yaratilgan bo`ladimi yoki kishi axloqni keyin o`rganadimi, degan savolga javob berishda ixtilof qilishgan. Ulardan ba`zilari yaxshi bo`lsin, yomon bo`lsin, axloq inson yaratilgan chog`ida qo`shib yaratiladi. Axloqni keyin kasb qilib bo`lmaydi, deganlar. Boshqa bir guruh axloq ilmi ulamolari esa, inson tug`ilganida hech qanday fazilat yoki razilatsiz tug`iladi. Unda qandoq xislat bo`lsa, tug`ilganidan keyin paydo bo`ladi, deganlar. Musulmon axloq ilmi ulamolari esa, insonga ota-onasida bor ba`zi axloklarning xamirturishi onasining qornida homila bo`lganida o`tadi. Alloh bandani xalq qilish chog`ida undan axloq qobiliyatini qo`shib yaratadi. Inson tug`ilib o`sishi jarayonida tarbiya, muhit va odatlanish oqibatida u yoki bu axloqni o`zida rivojlantiradi, yoki yo`qotib yuboradi, deyilar. Ushbu hadisi sharifda ana o`sha haqiqatni ta`kidlovchi misollar kelmokda. . Buyuk Robbimiz bizni ham xulqimizni go`zal qilib, aynan odob-axlog`imiz, xulqimiz bilan darajamizni yuksaklarga ko`tarsin, amin

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Абдулфаттоҳ Муҳаммад Ҳалавий. Мухйиддин Ибн Муҳаммад Абдулқодир Ҳанафийнинг «Жавоҳир ал-мудийя фи табақот ал-ҳанафийя» асари тадқиқи. – Ар-Риёд: Дор ал-улум, 1993. – Ж 4. – 686 б.
2. Абулфидо Зайнуддин Қосим ибн Қутлубуғо Судуний. Тож ат-тарожим. – Байрут: Дор ал-қалам, 1992. – 568 б.
3. Абдулхай Лакнавий. Ал-Фавоид ал-баҳийя фи тарожим ал-ҳанафийя. – Қоҳира: Дор ал-кутуб ал-исломийя, 1896. – Ж 1. – 262 б.
4. Ёкут Ҳамавий. Муъжамул-булдон. – Байрут: Дор содир, 1977. – Ж 5. – 461 б.
5. Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf “Anbiyolar qissasi” 33-bet.
6. Muhammad Ali Sobuniy “An-Nubuvvat val Anbiya” 329-bet
7. Mahammadovna, S. I. (2021). Needs and factors for developing professional and creative abilities of students of higher educational institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2200-2209.



8. Maxammadovna S. I. O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash: Ijtimoiy xizmatlar agentligi misolida //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2023.
9. Mahammadovna, S. I. (2023). Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education. *Telematique*, 22(01), 348-355.
10. Сироджиддинова И. Та'лим jarayonida innovation texnologiyalar //Цифровизация современного образования: проблема и решение. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 57-60.